

# TA'LIM XIZMATLARIDA MARKETING BOSHQARUVI

**Kuzmina Svetlana Nikolayevna**

**Sankt-Peterburg davlat elektrotexnika universiteti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

**Saloxitdinov Sherzod Farxodovich**

**Jizzax politexnika instituti erkin tadqiqotchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat ta'lim markazlarining aholiga xizmati darajasini takomillashtirishda ya'ni jahon standartlariga moslashtirishda butun jahonda ayniqsa rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi marketing faoliyatini o'rganish natijasiga tayanib yechimlar va xulosalar bayon etildi. Ushbu yo'nalishga oid izlanishlar, ilmiy ishlar muhokama qilingan.

**Tayanch so'zlar:** marketing, marketing strategiyasi, raqobatbardoshlik, ta'lim tizimi, ta'lim sifati, ta'lim xizmatlari bozori, xizmatlar sohasini rivojlantirish, xalqaro aloqalar.

**Abstract:** In this article, solutions and conclusions were presented based on the results of the study of marketing activities of especially developed countries in the world in improving the level of service to the population of state and non-state educational centers operating in the country, that is, adapting them to world standards. Researches and scientific works related to this direction were discussed.

**Keywords:** marketing, marketing strategy, competitiveness, educational service, quality of education, education services market, development of services, international relation.

Ta'lim muassalarida, o'z xizmatlari darajasini yaxshilash uni jahon standartlariga moslashtirish asosiy maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunga Surxondaryo viloyatida 6 ta oliy

ta'lim muassassasi , 20 ta o'rta maxsus , kasb – hunar ta'lim muassassalari , 300 dan ortiq davlat va nodavlat o'rta ta'lim maktablari (sport va ixtisoslashgan maktablar shular jumlasidan) , 1000 ga yaqin o'quv markazlari faoliyat yuritmoqda. Eslatib o'tish joizki , 2017-2021 yillarda O'zbekiston prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan , O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishiga asoslangan harakatlar startegiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassassalari faoliyatining sifatini hamda samaradorligini oshirish"<sup>1</sup> ka'bi yoshlar va ayniqsa talabalar uchun ustuvor vazifalar belgilab o'tilgan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosati darajasida qaraladi. Bunga misol tariqasida ta'lim to'g'risidagi qonun va bir nechta ta'limga aloqador qarorlarning qabul qilinishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ushbu qarorlar va qonunlar nafaqat ta'lim sifatini va uning xizmatini oshirish va yaxshilash , balki O'zbekistonda ta'lim oluvchilarning huquqini yanada kengaytirish maqsad qilingan. Eslatib o'tamiz , O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 23.09.2020 yildagi O'RQ- 637 sonli , Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan, ta'lim to'g'risidagi qonunda quyidagilar keltirib o'tilgan.

“Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

<sup>1</sup> ПФ-4947-сон 07.02.2017. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://lex.uz/docs/3107036>

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;  
umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni  
bepul olish;

oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek  
umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim  
muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali  
ta'minlanadi.”<sup>2</sup>

Ta'lim olishga bo'lgan huquqlarning kengayishi bu albatta yaxshi  
natijalarga olib keladi, shu bilan bir qatorda ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga  
ha turtki bo'ladi.

Bundan tashqari T.I.Avdeeva, A.D.Kuliklar Zamonaviy jamiyatda oliy  
ta'lim o'rniga o'ziga hos qarashni keltirib o'tgan unga ko'ra ta'lim xizmati  
davlatning ajralmas iqtisodiy bo'lagidir, shu sababli davlat har bir yoshda yoki ish  
jarayonida shaxslardan ma'lum bir ilmiy darajani talab qiladi<sup>3</sup> [4]. Bu ham  
iqtisodchilar qarashlaridan bir lavha, bu o'z navbatida shuni anglatadiki, aholi  
bolaligidan jamiyatda o'z o'rnini topish uchun ham ta'limga muhtojdir.  
O'zining ijtimoiy- iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ta'lim davlat tovari bo'lib, fan,  
madaniyat va sog'liqni saqlash bilan bir qatorda xalq xo'jaligining aralash  
sektoriga kiradi.

O'z navbatida so'ngi yillarda barcha oliy ta'lim muassasalari bosqichma  
bosqich jahon standartlariga mos kredit modul tizmiga va raqamli universitet  
loyihasi asosida o'qituvchilar va talabalar uchun qulay bo'lgan HEMIS (Oliy  
ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot) dasturiga ulana boshlashdi. Eslatib  
o'tamiz, Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 8-oktyabr kuni  
imzolangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha  
rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonda Respublika  
kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar

---

<sup>2</sup> O'RQ-637-сон 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida. (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://lex.uz/docs/-5013007>

<sup>3</sup> Викторова, Ш., & Мурадович, А. (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: МИРОВОЙ АСПЕКТ. Retrieved 24 March 2022, from <https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-razvitiya-vysshego-obrazovaniya-mirovoy-aspekt>

(Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma – bosqich kredit modul tizmiga o'tkazish" belgilab berilgan edi. Shu bilan bir qatorda mamlaktimizdagi barcha universitetlar raqamli universitet loyihasi asosida universitetlarning barcha a'zolari o'qituvchilar, talabalar va boshqa xodimlari ham HEMIS dasturiga ulana boshlashdi. Ushbu axborot tizimi "Ma'muriy boshqaruv", "O'quv jarayoni", "Ilmiy faoliyati" va "Moliyaviy boshqaruv"axborot tizimlarini o'ichiga oladi. HEMIS axborot tizmi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Dunyo tan olgan barcha oliy ta'lim muassasalari va hattoki o'rta maxsus ta'lim maskanlari ham shu kabi maxsus boshqaruv tizmiga ega. Bu kabi boshqaruv tizimi ta'lim muassasasi strukturasi, fakultetlar, kafedralar, xodimlar va talabalarni, ular haqidagi ma'lumotlar, talabalarning o'zlashtirish jarayonlari va natijalarini boshqarishga yordam beradi. Shu o'rinda bu kabi yaqona boshqaruv tizmi talabalar uchun qulaydir, har bitta talaba o'z moliyaviy holati, o'zlashtirish darajasini, dars jadvalini va boshqa shu kabi ma'lumotlarini bitta ilova orqali bilishi mumkin. Bu kabi qisqa yillardagi keskin o'zgarishlarning barchasi mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining reytingini ko'tarishga qaratilgan chora tadbirlardir.

O'zbektonda faoliyat yuritayotgan barcha ta'lim muassasalarida o'z faoliyatlari jarayonlarida albatta marketing faoliyatini va o'zlari taklif etayotgan ta'lim xizmati sifatini jahon darajasida standartlatish ustida ishlar olib borilmoqda.

## REFERENCES

1. ПФ-4947-сон 07.02.2017. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://lex.uz/docs/3107036>

2. O'RQ-637-сон 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida. (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Выставка «ЮНЕСКО: образование для всех». (2022). Retrieved 24 March 2022, from <https://www.rsl.ru/ru/events/afisha/vistavki/yunesko-obrazovanie-dlya-vsex>
4. Викторова, Ш., & Мурадович, А. (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: МИРОВОЙ АСПЕКТ. Retrieved 24 March 2022, from <https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-razvitiya-vysshego-obrazovaniya-mirovoy-aspekt>
5. Салохитдинов, Ш. (2023). Олий таълим хизматлари сифатини баҳолаш тизимининг ижтимоий-иқтисодий моҳияти, мазмуни ва назарий ёндашувлар.
6. Шерзод, С. Ф. (2022). Пул кредит сиёсатининг инфляцияни тартибга солишдаги аҳамиятини ошириш йўллари. *Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal*, 3(2), 81-87.
7. Салохитдинов, Ш. (2023). Мамлакатимизда хизматлар соҳасининг ривожланиши ва таркибий ўзгаришлари таҳлили. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(2), 93-97.
8. Бобаназарова, Ж. Х., & Салохитдинов, Ш. Ф. Ў. (2023). Олий таълим тизимида бошқариш самарадорлигининг ўзига хос хусусиятлари. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 303-306.